

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-soni)**



SAN’ATSHUNOSLIK

ART HISTORY

**MILLIY MUSIQIY CHOLG’ULARINING TARIXI, TASHKIL TOPISHI VA
TARAQQIYOTI: CHANG CHOLG`USI MISOLIDA**

Haydarova Rozaxan Ashuraliyevna
Yunus Rajabiy nomidagi
O‘zbek milliy musiqa san`ati instituti
“Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti
haydarovar@gmail.ru

Annotatsiya: Mazkur chang cholg‘usining tarixiy o‘zgarishlari, materiallarining yangilanishi va tovush sifatining yaxshilanishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, chang cholg‘usini rivojlantirishdagi ustalar hissasi va uning zamonaviy musiqiy talablar bilan moslashuvi haqida ma'lumotlar berilgan. Ijro uslublari, tovush jarangdorligini yaxshilash va tovush diapazonini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan izlanishlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: chang, xalq cholg‘usi, ijro mahorati, tovush, konstruktsiya, moslashish, rivojlanish, takomillashtirish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются исторические аспекты изменения конструкции, использования материалов и улучшения звуковых характеристик. Также описан вклад мастеров в развитие чанга и его адаптацию к современным музыкальным стандартам. Описаны особенности исполнения, улучшение звучания и расширение диапазона инструмента, а также изменения, связанные с инновациями в его конструкции.

Ключевые слова: чанг, народный инструмент, мастерство исполнения, звук, конструкция, адаптация, развитие, усовершенствование.

Abstract: This article covers the historical aspects of the instrument's evolution, the use of materials, and the enhancement of its sound characteristics. The article also discusses the contributions of masters in the development of the cheng and its adaptation to modern musical standards. The paper highlights the techniques of performance, the improvement of sound quality, and the expansion of the instrument's range.

Keywords: cheng, folk instrument, performance skills, sound, construction, adaptation, development, improvement.

KIRISH

Milliy musiqiy cholg‘ular insoniyat tarixining qadimiylaridan to hozirgi kungacha davom etib kelgan muhim madaniy meroslardan biridir. Ular nafaqat musiqa san’ati, balki

milliy qadriyatlar, an’analari, va xalq ruhiyatining ifodasi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Milliy musiqiy cholg’ularining shakllanishi va rivojlanishi, insoniyatning tarixiy tajribasi, ijtimoiy o’zgarishlar va madaniy aloqalar bilan chambarchas bog’liqdir. Ushbu maqolada, milliy musiqiy cholg’ularining dastlabki paydo bo’lishi, tarixiy rivojlanishi, shakllanishi va ular orqali milliy madaniyatning ifodalanishi masalalari yoritiladi.

Zamonoviy O’zbekistonda madaniyat va san’at sohasida so‘nggi besh yillikda ko‘plab qarorlar qabul qilindi. Bularga mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san’atning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 31 maydagi PQ-3022-son, 2018 yil 26 avgustdagи PQ-3920-son, 2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son, 2022 yil 2 fevraldagи PQ-112-son qarorlari, 2017 yil 15 fevraldagи PF-4956-son, 2020 yil 26 maydagi PF6000-son, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmonlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi 9-son qarori hamda 2021 yil 20 yanvardagi madaniy faoliyat, shuningdek madaniyat tashkilotlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida qabul qilingan O’RQ-668-sonli “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonunlarini kiritish mumkin.

Milliy musiqiy cholg’ular, taxminan eramizdan avvalgi XIII ming yillikda paydo bo’lgan deb hisoblanadi. Shu davrda musiqa cholg’ularining dastlabki shakllari tashkil topgan bo’lib, ular asosan urma zarbli asboblar edi. Dastlabki mehnat qo’shiqlari va ritmik tuzilmalar, insonlarning kunlik mehnat faoliyati bilan bog’liq bo’lib, ular musiqiy ifodalar orqali o’ziga xos bir tizimni shakllantirgan. Bu davrda cholg’ular, ishning ritmik va takrorlanuvchi jarayonlarini aks ettirishga xizmat qilgan.

Milliy musiqiy cholg’ular nafaqat musiqa asbobi sifatida, balki har bir xalqning milliy g’ururi, an’analari va qadriyatlarini ifodalovchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Musiqiy cholg’ularda har bir xalqning o’ziga xos ovozi, tovush tuslari, shakllari va ijro usullari mavjud. Ushbu asboblar orqali insoniyatning ma’naviy dunyosi, ruhiy holati va ijtimoiy hayoti ifodalanadi.

O’zbek milliy musiqiy cholg’ulari, o’zining tarixiy rivojlanishi davomida ko’plab o’ziga xos xususiyatlarni saqlab qolgan. Chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g’ijjak, qo’biz kabi musiqiy cholg’ular, o’ziga xos tuzilishi va tovush tuslari bilan xalqning madaniy merosini aks ettiradi. Ularning har biri, o’z navbatida, uzoq asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan va bizgacha yetib kelgan.

Musiqa san’atining ijtimoiy ahamiyati tarix davomida o’sib borgan. Milliy musiqiy cholg’ularining shakllanishi, madaniyat va jamiyatning o’zgarishi bilan bog’liq bo’lib, ular o’zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashgan. Shaharliklar va yuqori tabaqa sinflarining turmush tarzida musiqaning roli sezilarli darajada kuchaygan. Shu bilan birga, yakkanavoz va

ansambl musiqachiligi, shuningdek, raqsni o‘z ichiga olgan vokal cholg‘u musiqa turkumlari paydo bo’lgan.

O’rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuvning kuchayishi bilan birga, maxsus musiqiy ustaxonalarining paydo bo’lishi boshlandi. Bu yerda musiqachilar o‘z mahoratini oshirish, yangi ijro usullarini o’rganish, va yangi cholg‘u asboblarini yaratish imkoniyatiga ega bo’lishdi. Ustoz-shogird an’analari musiqiy madaniyatning rivojlanishida muhim o’rin tutgan. Ushbu an’ana orqali, musiqachilik san’ati avloddan avlodga o’tib, yangi avlod ijodkorlari tomonidan davom ettirilgan.

Adabiyotlarning tahlili: Maqom cholg‘u ijrochiligi fani, musiqiy ta’limning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fan talabalarga milliy musiqiy cholg‘ular tarixi va ijro yo’llari haqida chuqur bilim berishga qaratilgan. Bu jarayon, o’quvchilarning ijro malakasini oshirib, ularni mukammal musiqachilar bo’lishga tayyorlashga xizmat qiladi. Hazrat Navoiy aytganidek, "Ham cholg‘ay, ham aytg‘ay - ko‘ngil mulkiga qo‘zg‘alonlar solg‘ay" degan fikr, musiqa ijrochiligining nafaqat ijro etish, balki uning ruhini tushunib, his-tuyg‘ularni to‘g‘ri ifodalash zarurligini anglatadi. Shuning uchun soz chalishni bilmagan honanda mukammal ijrochi hisoblanmaydi.

Chang ijrochiligining rivojlanishi va takomillashtirilishi ijrochi tomonidan ijro texnikasini mukammal egallashni taqozo etadi. O‘qituvchilar faqat nazariy bilimlar va mahoratni oshirish bilan cheklanmay, balki ijrochilik uslublarini chuqur o’rganish, o’quvchilarni musiqaning nozik jihatlari bilan tanishtirishga katta e’tibor qaratishlari kerak. Changda ijrochilik san’ati uslublarini asta-sekin, to‘g‘ri va aniq egallashga alohida ahamiyat berish zarur. Chang, boshqa xalq cholg‘ulari singari, professional cholg‘uga aylanishi bilan yangi ijro uslublari, ifodalilik imkoniyatlarini kengaytirgan va ijrochilik mahoratini boyitgan. Shuning uchun, chang ijrochiligidagi musiqa ijrosining texnik va ifodaviy jihatlari birgalikda rivojlanadi.

Uzoq o‘tmishda chang ijrochilar sonining ko‘pligi, chang cholg‘usining keng tarqalganligini va tarixiy davrlarga moslashganligini ko‘rsatadi. Torli-urma cholg‘ular guruhining yagona namoyandasini bo‘lgan chang, ilmiy-nazariy tasnifga ko‘ra tovush manbai bo‘yicha torli cholg‘u, tovush hosil qilish uslubi bo‘yicha esa urma cholg‘u sifatida tasniflanadi. Chang – o‘zbek xalq cholg‘ulari orasida jarangdorligi, tembrining boyligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi: O‘tgan asrda chang sozi to‘liq emas edi, chunki o‘scha davrlardagi chang simlari teng diametrli bo‘lib, tovush ketma-ketligi diatonik temperatsiyada sozlanmagan. Avvalgi changlar tut daraxtidan yasalib, hozirgi ko‘rinishiga nisbatan ancha katta bo‘lgan va ingichka mis torlar bilan ta’minlangan. Chang torlarini o‘rnatish uchun ishlatalgan qulqlar uzun uchli mixga o‘xshash sariq misdan tayyorlangan edi. Torlarning balandligi bolg‘achaga o‘xshash kalit yordamida sozlanib, kalitning dasta qismining bolg‘acha tomoni bilan urilgan. Hozirgi changlarda esa torlar kuchaytirilganligi sababli cholg‘u qulqlari po‘latdan yasaladi.

Eski changda oyoqlar mavjud emas edi, shuning uchun ijrochilar uni yerda o‘tirgan holda ijro etishgan. Bunday eski namunalar hali ham saqlanib kelinmoqda. Rekonstruksiya

qilinmagan changlarni ishlab chiqqan usta Ayyayev Z. (1935-yilda) kabi san’atkorlar, musiqiy cholg‘ularni yangilashda Usmon Zufarov(1946-yillarda) o‘z hissalarini qo‘shganlar.

O‘tgan asrning 30-yillarida madaniy o‘zgarishlar natijasida mavjud cholg‘ular zamon talablariga javob bermay qoldi. Bu davrda xalq sozgar ustalari bilan birgalikda, bir qator sozandalar musiqiy asboblarning sifatini oshirish uchun izlanishlar olib bordilar. Eski chang cholg‘usini zamon talabiga moslashtirish ishlarini usta Ro‘zmat Isaboyev, mashhur doirachi va changchi Olim Komilov, hamda mohir sozanda Matyusuf Xarratovlar boshladilar. Ular milliy chang cholg‘usining tovush jarangdorligini yaxshilash, tovush ko‘lamini kengaytirish va tovushlarning to‘laqonli bo‘lishi uchun tinimsiz ishladilar.

Chang cholg‘usi boshqa cholg‘ularga qaraganda murakkab bo‘lganligi sababli, uning takomillashuv jarayoni uzoq davom etdi. Biroq, an'anaviy chang namunasi asosida yarim xromatik tovushqatorli, keyinchalik esa to‘liq xromatik tovushqatorlarga ega chang cholg‘ulari ishlab chiqildi. Bu jarayonning natijasi sifatida, zamonaviy chang cholg‘usining tovush sifatlari va ifodaviy imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilandi.

Tahlil va natijalar: Changda yaxshi tovush chiqarish, cholg‘u sifatiga va sozlash jarayonining aniqligiga bog‘liq bo‘lib, simlarning bir xilligi, quloqlarining tengligi va to‘g‘ri o‘tirish holatiga katta e’tibor berish zarur. O‘tirgan ijrochining qo‘l tirsagi changning balandligidan oshmasligi kerak. Bu, o‘z navbatida, changning tovush sifatini yaxshilashga yordam beradi. Ijrochi uchun to‘g‘ri o‘rnatilgan stul va chang o‘rtasidagi masofa, uning bo‘yi va qo‘llari uzunligiga mos kelishi kerak. Zamonaviy changlar yaxshi sozlangan va ularning tizimida tovushni yaxshilash va tozalash imkonini beradigan mexanizmlar mavjud.

Tovushni tozalash va ijro texnikasini takomillashtirishda changning mexanik qurilmalari yordamida tovushni uzaytirish,akkordlarning aralashib ketishi va ikki tovushni birga chiqarish imkoniyatlarini yaratadi. Amaliyat shuni ko‘rsatadiki, tovush jarangining tembri va sifati cho‘planning torlarga urilgan zarbiga bog‘liq. To‘liq va quyuq tovush hosil qilish uchun cho‘plar va simlar o‘rtasidagi masofa kamida 3-4 sm bo‘lishi kerak.

Xulosa va takliflar: Maqolada chang ijrochiligining rivojlanishi va turli ijro uslublarini o‘zlashtirish, shuningdek, maqom cholg‘u ijrochiligi kabi an'anaviy musiqaning turli yo‘nalishlarida ijrochi- changchilarning kasbiy mahoratini oshirishdagi ahamiyati keng qamrovda ta’kidlangan. Musiqa asarini o‘rganishda, nafaqat texnikani, balki uning badiiy jihatlarini chuqur o‘zlashtirish zarur. Ijrochilik san’ati o‘z ichiga texnik, ifodaviy, va estetik mahoratni qamrab oladi, bu esa ijrochining san’atini yanada mukammallashtiradi.

Chang va maqom cholg‘u ijrochiligi o‘rtasidagi o‘xshashlikni ko‘rgan holda, ikkala yo‘nalishdagi ijrochilarga ham musiqa asarining texnik, badiiy va hissiy jihatlarini chuqur anglab o‘rganish talab qilinadi. Maqom ijrochiligi, o‘zining boy va murakkab melodiya, ritm va intonatsiya tizimlari bilan chang ijrochiliga o‘xshash tarzda, musiqaning ichki tuzilmasini, uning ruhiy holatini va xalqning ma’naviyatini ifodalashni talab etadi.

Ma'lumki, maqom musiqasida ifodalanadigan nozik his-tuyg‘ular va murakkab intonatsiyalar, ijrochi tomonidan to‘g‘ri tushunilib, jonli tarzda ijro etilishi zarur. Shu sababli,

maqom ijrochisi nafaqat texnik jihatlarga e’tibor qaratishi, balki asarning ruhiy mazmunini, uning tarixiy va madaniy ahamiyatini ham chuqr o‘rganishi lozim. Bu, o‘z navbatida, ijrochi uchun yangi ijro uslublarini egallashga va ijro mahoratini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu tarzda, chang ijrochiligi va maqom cholg‘u ijrochiligi bir-birini to‘ldiruvchi va rivojlantiruvchi san’at shakllaridir. Ijrochi har ikki yo‘nalishdagi musiqaning texnik va badiiy jihatlarini o‘zlashtirib, ularni o‘z ijrosida uyg‘unlashtira olishi zarur. Bu nafaqat uning ijro mahoratini oshiradi, balki musiqa san’atining yanada chuqurroq, ifodali va zamonaviy shakllarini yaratishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fitrat A. Uzbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., 1993 y.
2. Rajabov I. Maqomlar. T., 2006 y.
3. Matyakubov O. Buxoro shashmaqomiga yana bir nazar. T., 2014 y.
4. Matyakubov O. Uzbekskaya klassicheskaya muzika. I-II tom. T., 2015 y.
5. Matyakubov O. Maqomot. T., 2004 y. 6. Matyakubov O, Boltaev R, Aminov X. Xorazm tanbur chizig’i. T., 2010.
7. Kon Yu.G. Nekotorie voprosi ladovogo stroeniya uzbekskoy narodnoy pesni i yevo garmonizatsii. T., 1979
8. Yunusov R. Makomi i mugami. T., 1983